

**“MADANIY TAFAKKUR” TUSHUNCHASI, UNING FALSAFIY, IJTIMOIIY
VA PSIXOLOGIK JIHATLARI***NavDU doktoranti***Aslonov Jurabek Mansurovich**jurabekaslonov03@gmail.com**Annotatsiya**

Mazkur maqolada “madaniy tafakkur” tushunchasi, uning ta’rifi, turli xil olimlar tomonidan unga berilgan ta’riflar qiyosiy tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda, maqolada ushbu tushunchaning falsafiy, ijtimoiy va psixologik jihatlar ham o’rganiladi.

Kalit so’zlar: madaniyat, tafakkur, madaniy tafakkur, moddiy madaniyat, ma’naviy madaniyat, kultura, kultivatsiya.

**THE CONCEPT OF “CULTURAL THINKING” AND ITS
PHILOSOPHICAL, SOCIAL, AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS***Navoi State University***Aslonov Jurabek Mansurovich**jurabekaslonov03@gmail.com**Abstract**

In this article, the concept of “cultural thinking”, its definition, and the interpretations provided by various scholars are comparatively analyzed. In addition, the philosophical, social, and psychological aspects of this concept are also examined.

Keywords: culture, thinking, cultural thinking, material culture, spiritual culture, cultura, cultivation.

**ПОНЯТИЕ «КУЛЬТУРНОГО МЫШЛЕНИЯ» И ЕГО ФИЛОСОФСКИЕ,
СОЦИАЛЬНЫЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ***Навоийский государственный университет***Аслонов Журабек Мансурович**jurabekaslonov03@gmail.com**Аннотация**

В данной статье проводится сравнительный анализ понятия «культурное мышление», его определения, а также интерпретаций, представленных

различными учёными. Кроме того, рассматриваются философские, социальные и психологические аспекты данного понятия.

Ключевые слова: культура, мышление, культурное мышление, материальная культура, духовная культура, культура (cultura), культивация.

Insoniyatda tafakkurning turli shakllari mavjud bo'lib, mutaxassislar tomonidan ular bir nechta turga ajratiladi. Masalan, mantiqiy, abstrakt, amaliy, intuitiv va hokazo. Ushbu tushunchalar orasida madaniy tafakkur alohida o'ringa egaligi bilan ajralib turadi. Madaniy tafakkur jamiyatning tarixiy, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq tushuncha hisoblandi. O'z o'rnida uning shakllanishida falsafiy, ijtimoiy va psixologik omillar muhim rol o'ynaydi.

Avvalo, "madaniy tafakkur" tushunchasi hamda uning ta'rifi haqida turli davrda turli xil olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Shuning uchun biz ushbu tushunchadagi har bir so'zga, avvalo, alohida ta'rif bergan holda, keyin uni umumlashtirishni lozim ko'rdik.

2021-yilda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan chop etilgan "Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati" kitobida "madaniyat" hamda "tafakkur" so'zlariga quyidagicha ta'rif berilgan: Madaniyat – tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos shaklini ifodalaydigan tushuncha... Madaniyat atamasi keng ma'noda qo'llanilib, jamiyatning ishlab chiqarish va ijtimoiy-ma'naviy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlarini, muayyan xalq yoki ijtimoiy guruhning ma'lum davrda erishgan natijalari, o'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik va ma'rifatlilik hamda turmushning inson ehtiyojlariga mos keladigan sharoitlari majmuini ifodalaydi". [1,287]

Yuqoridagi ta'rifdan shuni tushunish mumkinki, madaniyat, bu avvalo insonning boshqalar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida seziladigan tushunchadir. Insonning madaniyatli ekanligi uning yurish-turishida, amallarida, boshqalar bilan qanday muomala qilishida hamda jamoat va boshqa joylarda o'zini qanday tutishida ko'rinadi.

Barchamizga ma'lumki, inson faoliyatining ikki asosiy turiga qarab madaniyat tushunchasi ham moddiy va ma'naviy madaniyatlarga bo'linadi. Moddiy madaniyat inson rivojlanishi natijasida erishilgan har qanday natijalar – mehnat qurollari, turarjoylar, kiyim-kechak va hattoki, transport va aloqa vositalarini o'z ichiga olsa, ma'naviy madaniyatga aqliy va ma'naviy yaratuvchanlik sohalari – odob-axloq, huquq, falsafa, din, tarbiya, san'at kabilar kiradi.

Inson ongida madaniyatni shakllantirishning bir qancha usullari borki, ulardan insoniyat bugungi kunga qadar foydalanib kelmoqda. Avvalo, ushbu jarayonda teatr, kino, muzey, san'at saroylari, kutubxona, madaniyat va istirohat bog'lari, ma'naviyat va ma'rifat markazlari hamda ommaviy axborot vositalarining o'zni beqiyosdir. Ushbu

muassasalarning madaniy tafakkurni shakllantirishda naqadar muhim ekanligini Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” da ham alohida e’tibor berilganligini ko‘rishimiz mumkin: “Madaniyat va sport muassalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo‘yicha maxsus dasturlar ijrosi ta‘minlanadi. Milliy kino va kutubxonalar tizimini yanada rivojlantirish, xalq hunarmandchiligini qo‘llab-quvvatlashga doir aniq va samarali ishlar olib boriladi”. [2]

Fransuz olimi A. Mol XX asrning 60-yillarida madaniyatning 250 dan ortiq ta‘rifini yaratilganini ta‘kidlagan edi. Bugungi kunda madaniyat tushunchasining ta‘rifi bundan ikki barobar ortiq bo‘lsa ham ajab emas. [3]

Hozirda ko‘pgina xalqlarda “madaniyat” tushunchasi o‘rnida “cultura” atamasi ishlatilib kelinmoqda. Tarixan ushbu atama inson mehnati natijasida tabiatning o‘zgarishi, yerga ishlov berish, dehqonchilik ma’nolarini anglatgan. Masalan, qishloq xo‘jaligida “kultivatsiya” atamasi ham aynan shu ma’noda ishlatilib kelinmoqda. O‘zbek terminologiyasiga “kultura” so‘zi rus tilidan kirib kelganligini alohida ta‘kidlash lozim.

Tafakkur – inson ma‘naviyatining tarkibiy qismi, bilishning olamdagi narsa va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlarini aniqlaydigan, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya‘ni qonuniy bog‘lanishlarni aks ettiradigan aqliy bosqich. [1,565] “Tafakkur” so‘zi arabcha “fikr” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘ylash, mushohada qilish, fikr yuritish ma’nolarini anglatadi.

Tafakkur borliqni bilvosita aks ettiruvchi tushunchadi. Uni hosil qilishda har sfar yangi bilimlarga emas, balki oldin hosilgan qilingan tajribaga asoslaniladi. Tafakkur jarayoni fqatgina insonning miyasi bilan emas, balki qalbi, rhiyati va shuuri bilan hav uzviy bog‘liqlikda davom etadiga jarayondir. Fikrlovchining ihcki dunyosi qanchalik boy bo‘lsa, uning fikrlash saviyasi ham, hatti-harakati ham, yurish-turish, axloq-odobi ham shunga yarasha bo‘ladi. Inson fikrining teranligi, tiniqligi, uning mantiqqa asoslanganligi, erkin va mustaqilligi, badiiy yondashilganligi va ijodiyligi, maqsadga qaratilganligi tafakkurning sifatlari hisoblanadi. Inson borki, u fikr yuritish, tafakkur qilish qobiliyatiga ega.

Inson tafakkuri o‘ziga xos xususiyatlarni tekshirish va tahlil qilish natijasida mustaqil fikrlash inson oldida turgan muammolari, maqsad va vazifalari belgilangan holda o‘z bilimi, dunyoqarashi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo‘l va usul, vositalari yordamida o‘zining intellectual imkoniyatlari darajisida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo‘lgan aqliy faoliyatdir.

Bir so‘z bilan aytganda madaniy tafakkur – bu inson ongida jamiyatda mavjud bo‘lgan madaniy va ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy me‘yorlar va estetik qarashlar asosida shakllanuvchi tafakkur shaklidir. U insonning o‘zini va atrof-muhitni idrok etishida, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'shimcha sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, madaniy tafakkur – bu insonning o'z hayoti davomida madaniy tajribalarni umumlashtirib, ularni tahlil qilishi, baholashi va yangi ijtimoiy-ma'naviy hodisalarni qayta talqin etish jarayonidir. Bu tafakkur turida inson nafaqat mavjud qadriyatlarni qabul qiladi, ularga amal qiladi, balki ularni yangilash, rivojlantirish va zamonaviy sharoitga moslashtirish orqali faol ijtimoiy subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Madaniy tafakkur insonning umumbashiy madaniy meroslarga, qadriyatlarga, axloqiy qarashlarga nisbatan ongli yondashuvini ifodalaydi. U shaxsning madaniy o'zlikni anglash jarayonida, madaniy ijtimoiylashuvda va jamiyatda to'laqonli ishtirok etishida asosiy o'rin tutadi.

O'zbek faylasufi A. Yo'ldoshevning fikricha, madaniy tafakkur – bu “insonning ma'naviy hayotini anglashga, qadriyatlarni idrok qilishga, ularni hayot mezoniga aylantirishga qaratilgan tafakkur shakli” hisoblanadi. [4]

Bundan tashqari, madaniy tafakkurni insonning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilishda, ularni o'zlashtirishda hamda jamiyat hayotida amalga oshirishga yo'naltirilgan tafakkur turi deb ta'riflasak ham bo'ladi.

Madaniy tafakkur falsafiy jihatdan insonning borliqni anglashga bo'lgan intilishi, haqiqat, ezgulik va go'zallik haqidagi qarashlari bilan bog'liqdir. Falsafiy tafakkur doirasida madaniy tafakkur insonning o'zligini anglash, hayot mazmuni va maqsadini tushunish, mavjudlikni baholashga xizmat qiladi. Ayni paytda u madaniyatning xilma-xil ko'rinishlarini tahlil qilish asosida falsafiy qonunlar va tushunchalarning mazmunan boyishi, falsafaning ijtimoiy amaliyot bilan aloqasining kengayishi va chuqurlashuvi, u ilgari surayotgan xulosa va qoidalarning boyishi va takomillashuviga xizmat qiladi.

Falsafa nuqtayi nazaridan madaniy tafakkur ontologik (borliqqa bo'lgan munosabat), gnoseologik (bilish), aksiologik (qadriyatlar), axloqiy-estetik va erkinlik kabi ko'pgina jihatlarida namoyon bo'ladi.

Madaniy tafakkur ijtimoiy hodisa sifatida inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'zida aks ettiradi. Madaniyat va jamiyat tushunchalarining farqi shundaki, madaniyat inson tomonidan yaratilgan qadriyatlar tizimi deya baholanadi. Har bir jamiyatda madaniy tafakkur o'ziga xos tarixiy, siyosiy, diniy va iqtisodiy sharoitlar asosida shakllanadi. Zero, madaniyat insoniy mazmun va ma'no bilan sug'orilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar dunyosiga tenglashtiriladi. Bunday qarashlar natijasida madaniyat jamiyatning ma'lum bir sohasi sifatida namoyon bo'ladi.

O'z o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, madaniyatni faqatgina qadriyatlar tizimi sifati tushunish ushbu tushunchani tor ma'noda anglashni ifodalaydi. Chunki bunday yondashuv orqali madaniyat tayyor natijalar tizimi sifatidagina baholanib, uning yaratilish jarayoni, bosqichlari e'tibordan chetda qoladi.

Jamiyatshunoslik bilan shug'ullanuvchi olimlarning aksariyati madaniy tafakkurni jamiyatdagi ijtimoiy institutlar (oilalar, maktab, diniy tashkilotlar) orqali shakllanishi va mustahkamlanishini alohida ta'kidlaydi.

Madaniy tafakkur atamasini psixologik nuqtai nazardan tahlil qilganda esa ushbu tushuncha shaxsning ichki dunyosi, uning emotsional, motivatsion va axloqiy tuyg'ulari bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Psixologlar madaniy tafakkurni shaxsning madaniy jihatdan o'zini anglashi, o'ziga va boshqalarga nisbatan ijobiy munosabati hamda empatiyasi bilan izohlaydilar. Madaniy tafakkur shaxsning psixologik jihatdan rivojlanishining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, u orqali inson o'zini jamiyatda angelaydi va o'z o'rnini belgilaydi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, madaniy tafakkur – bu shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga soluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanuvchi murakkab tafakkur shaklidir. Uning shakllanish jarayonida falsafiy, ijtimoiy va psixologik omillar o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Madaniy tafakkurni rivojlantirish orqali jamiyatda madaniyatli, ongli, ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati". Toshkent: Ma'naviyat. 2021.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti, 2022. B.265
3. Yo'ldoshev A. "Ma'naviyat asoslari". – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – B.176
4. Ochirdiyev A. Madaniyat falsafasi. Toshkent. Muharrir. 2010. B.9